

TIL - MILLAT KO'ZGUSI

Olimova Feruza

PROFI universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

222-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Axmedova Z.A

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tilimizning ezozlanishi mustaqillik yillarida ajratilgan etibor ajdodlarimiz shu til uchun jonlaridan ham vos kechishgani haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Beqiyos, odatiy, asrab-avaylash, noshud, uchrab turadi, ma'naviyat*

Abstract: *In three articles, the attention paid to the preservation of our mother tongue during the years of independence is reflected in the fact that our ancestors gave up their lives for this language.*

Keywords: *Incomparable, marriage, preservation, noshud, encounters, spirituality.*

Абстрактный: *В трех статьях внимание, уделяемое сохранению родного языка в годы независимости, отражено в том, что наши предки отдали жизнь за этот язык.*

Ключевые слова: *Несравненное, брак, сохранение, ношуд, встречи, духовность*

Asrlar davomida qadrlanib kelingan ona tilimiz mustaqillik yillarida chin ma'noda qadr topdi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so'ng esa o'zbek xalqining milliy ruhiyati qaytadan uyg'ondi desak, aslo yanglishmaymiz. "Ozbekiston Respublikasi Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi, ulkan maqsadlarni o'z oldiga qo'yg'an navqiron mamlakat va uning jonkuyar xalqi uchun millatimizning bebaho qadriyatlaridan biri bo'lgan ona tilimiz o'z o'rne va maqomiga qonuniy ega bo'lganini tasdiqladi. Bu esa istiqloq dardi bilan tinmay harakat qilayotgan o'zbek millatining buyuk ajdodlarimizga munosib avlod ekanining qat'iy isboti edi. O'zbekiston Konstitutsiyasi esa davlat tilining maqomini huquqiy jihatdan aniq belgilab, mustahkamlab qo'ydi. Bugungi kunda dunyoning qay bir davlatiga bormaylik, u yerda o'zbek tiliga qiziqayotgan ko'plab insonlarga duch kelamiz. Ona tilimizning qanchalar beqiyos va yoqimli ekanini begona yurtida yashab nogahon o'zbek tilini eshitib qolgan vatandoshimizchalik hech kim his eta olmasa kerak. Ona diyorimizda qadim-qadimdan "so'z sehri", uning qudrati alohida e'tirof etib kelingan, zero, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan benazir asarlar so'zlarimizning isboti bo'la oladi:

Durga to'lar so'zla ma'no dengizi,
So'zdir inson taqqan zirak-yulduzi
Eski charxning sadaf, billuri aro,
So'zdir unga loyiq gavhar bebaho.

(Abdurahmon Jomiy)

Xalqimizda farzand yaxshi soʻz sehri orqali tarbiyalanishi koʻp bor taʼkidlanadi. Chunki oʻzbek xalqi azaldan oʻzining soʻz sanʼati bilan dunyo xalqlaridan ajralib turgan. Buyuk va betakror bobokalonimiz Alisher Navoiy oʻz ijodi, isteʼdodi bilan butun dunyoni lol etgan.

Soʻzchi holin boqma, boq soʻz holini,
Koʻrma, kim der oni, koʻrgil kim ne der.

(Alisher Navoiy)

Ustoz adibimiz Tohir Malikning “Tilingni avayla” nomli asarida shunday ibratli jumlar keltirilgan: “Goʻzal soʻzlar faqat amalga oshirilgandagina chiroyli natijalar beradi. Muolaja yoʻlini topgan kasal odam unga amal qilmasa, tabobat ilmini bilgani mutlaqo foydasizdir. Yomgʻir tomchilari yerni jonlantirgani kabi komil insonlarning soʻzlari koʻngillarni jonlantiradi... Kimki tilni yaxshilikka ishlatsa, qurolidan ustalik bilan foydalanuvchi ovchi kabi boʻladi. Oʻzi tushunmagan gapga aralashaveradigan kishi esa nuqul behuda oʻq uzaveradigan noshud ovchiga oʻxshaydi”.

Darhaqiqat, til asrlar davomida shakllanib, sayqallanib kelingan gʻoyat nafis, shu bilan birga, juda qudratli quroldir. Zabardast ustoz shoirimiz Abdulla Oripov “Temur tigʻi yetmagan joyni, Qalam bilan oldi Alisher” deb yozgan misralarida ming karra haq edilar.

Ona tilimiz har bir oʻzbek farzandining faxr-u gʻururi, iftixori, oʻzligini anglatuvchi vosita. Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida davlatlarga, ularning milliy madaniyati va maʼnaviyatiga tahdid solayotgan ayrim oqimlarning mavjudligini hech birimiz unutmashimiz lozim. Ona tilimizning turli taʼsirlarga tushib qolmasligining oldini olish bugungi kunda har birimizning bosh vazifalarimizdan biri boʻlmogʻi lozim. Axborot asri deya atalayotgan XXI asrda yangiliklar soat emas, soniyalar sayin koʻpayib, butun dunyoga tarqalmoqda. Bunday shiddatli zamonda oʻzbek tilimizni biz, yoshlar, asrab-avaylashimiz, uning rivojlanishiga oʻz hissamizni qoʻshishimiz juda muhim hisoblanadi.

Internet tarmoqlari rivojlanib borayotgan bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketgan, internet aloqa vositalarini ilm emas, oʻyin yoʻlida qoʻllayotganlar ham ming afsuski, oramizda uchrab turadi. Ijtimoiy tarmoqdagi oʻziga xos jargonlarda, koʻcha soʻzlari orqali gaplashadigan yoshlarimiz, oʻz navbatida, adabiy til meʼyorlarini unutib qoʻyishmoqda, muomala madaniyatidan anchayin uzoqlashib ketishmoqda. Bu esa savodxonlik darajasiga katta taʼsir koʻrsatishi aniq. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqdagi suhbatlarida soʻz oʻrnida qoʻllaniluvchi tinish belgilaridan (masalan, qandaysan soʻzi oʻrnida (soʻroq) belgisini, yaxshi, zoʻr soʻzlari oʻrnida !(undov) belgisini oʻzaro suhbat tarzida yuborishlari haqida fikr yuritilmoqda -M.Q.), soʻkish soʻzlaridan foydalanishlarini nazarda tutadigan boʻlsak, (garchi ular bu soʻzlarni odatdagidek qabul qilishsada-M.Q.) yuqorida biz aytib oʻtgan soʻz masʼuliyati tushunchasidan anchayin yiroqdirlar. Bundan tashqari biz, yoshlarning, internet tarmoqlari orqali olib borayotgan suhbatlarimizda imloviy xatolarga, umuman, eʼtbor bermaslik, haddan ortiq qoʻpol qisqartmalardan foydalanish holatlari kundan kunga odatiy holatga aylanib bormoqda. Avvaliga, oʻzimiz

bilib- bilmay his etib turgan, arzimas kichik xatodek tuyulgan, faqat shu yerda shunday yozaman degan fikrni yuzaga keltirgan bunday yozishmalar, keyinchalik savodsizlikning, nutqdagi qo`pollikning ko`payishiga olib kelmoqda. Vaqt o`tishi bilan bularning barchasi o`zbek adabiy tilimizga ta`sir etib, til me`yorlarining buzilishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda biz, yoshlar, asrlar davomida xalqimiz g`ururiga aylangan ona tilimiz jilosini, uning mohiyatini yo`qotmagan holda fikr ifodalashimiz, uning rivojlanishiga jiddiyroq e`tibor berishimiz shart.

Ona tilimizga Davlat tili maqomining berilishi har bir o`zbek farzandining yuragida cheksiz quvonch uyg`otishi bilan bir qatorda, har birimizning zimmamizga ulkan mas`uliyat, ya`ni, so`z qo`llash mas`uliyatini yuklaydi. Bu yo`lda tinimsiz izlanishlar olib borayotgan zamondoshlarimiz, ustozlarimizning bisyorligi esa qalbizni cheksiz g`ururga to`ldiradi. 1989-yil 21-oktabr yurtimizda nafaqat o`zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun, balki o`zbek millatining ruhi uyg`ongan kun desak ham adashmagan bo`lamiz.

Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish lozimki, til bu eng bebaho ne`mat, eng qudratli kuchdir. Millat mulki bo`lgan bu ne`matni asrab-avaylash biz, yoshlarning, muqaddas burchimizdir. Bu yo`ldagi eng birinchi harakat, albatta, o`zaro suhbatlar jarayonida tilimizga e`tiborli bo`lishni, har birimiz so`z mas`uliyatini his etishimiz lozimligini taqozo etadi. Bugun tilimizga beradigan e`tiborimiz, o`zligimizga berayotgan e`tiborimizdir. Shunday ekan, barchamiz tilimiz ravnaqi uchun kurashmog`imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Buyuk va Muqaddassan mustaqil Vatan!" –Toshkent:O`qituvchi, 2011.
2. "Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. -Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
3. X. Muhitdinova, D. Xudoyberganova, I. Umarov, N. Jiyanova, T. Yusupova. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -T.: "ILM ZIYO", 2004.
4. www.ziyonet.uz
5. T. Malik. Tilingni avayla. –Toshkent, 2010.